

UDK 635.21:631.5:631.8

**KARTOSHKKA YETISHTIRISHDA AGROTEXNIK USULLAR VA HOSILDORLIKNI
OSHIRISH OMILLARI**

Mamasidiqova Nafisaxon Xamidullo qizi

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi tel :
+998979738185 e-mail: mamasidiqovanafisaxon1826@gmail.com*

Kirish: *Kartoshka dunyo aholisi uchun eng muhim oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning tarkibida kraxmal (20% gacha), uglevodlar, oqsil, S vitamini, mineral tuzlar va boshqa foydali moddalar mavjud. O'zbekistonda kartoshka "ikkinchi non" deb ataladi va kundalik taomnomamizning ajralmas qismidir. Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada kartoshka yetishtirishni rivojlantirish va importdan bosqichma-bosqich voz kechish bo'yicha davlat dasturi amalga oshirilmoqda*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kartoshka yetishtirishning asosiy agrotexnik usullari – tuproqqa ishlov berish, ekish muddatlari, o'g'itlash tizimi, sug'orish tartibi, chopiq qilish va zararkunandalarga qarshi kurash choralari yoritilgan. Shuningdek, hosildorlikni oshirishning zamonaviy omillari – intensiv texnologiyalar, yuqori avlodli urug'likdan foydalanish, takroriy ekish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Maqola qishloq xo'jaligi mutaxassislari, fermerlar va agronomlar uchun mo'ljallangan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные агротехнические приемы возделывания картофеля – обработка почвы, сроки посадки, система удобрения, режим орошения, окучивание и меры борьбы с вредителями. Также проанализированы современные факторы повышения урожайности: интенсивные технологии, использование высокорепродуктивных семян, повторные посевы и механизмы государственной поддержки. Статья предназначена для специалистов сельского хозяйства, фермеров и агрономов.*

Annotation: *This article covers the main agrotechnical methods of potato cultivation – soil tillage, planting dates, fertilization system, irrigation regime, hilling, and pest control measures. It also analyzes modern factors for increasing yields, including intensive technologies, the use of high-reproduction seeds, repeated cropping, and state support mechanisms. The article is intended for agricultural specialists, farmers, and agronomists.*

Kalit so'zlar: *Kartoshka, agrotexnika, hosildorlik, o'g'itlash, sug'orish, chopiq qilish, tuproqqa ishlov berish, ekish muddatlari, zararkunandalarga qarshi kurash, intensiv texnologiyalar, urug'lik kartoshka, takroriy ekish*

Ключевые слова: *Картофель, агротехника, урожайность, удобрение, орошение, окучивание, обработка почвы, сроки посадки, борьба с вредителями, интенсивные технологии, семенной картофель, повторные посевы*

Keywords: *Potato, agrotechnics, yield, fertilization, irrigation, hilling, soil tillage, planting dates, pest control, intensive technologies, seed potato, repeated cropping*

Ekish muddatlariga qat'iy rioya qilish hosildorlikning asosiy omillaridan biridir: Hudud turi Ekish muddati. Tekislik mintaqalari (ertagi kartoshka) 10 fevral – 15 mart. Tog' oldi mintaqalari (ertagi kartoshka) 10-25 mart. Kechki kartoshka may oxiri – iyun boshi. Ekish muddati kechiktirilganda, tuganak hosil bo'lishi yozning jazirama issig'iga to'g'ri keladi, bu hosildorlikni sezilarli darajada kamaytiradi.

Tuproq tayyorlash. Kartoshka ekiladigan maydon birinchi navbatda ekin qoldiqlaridan tozalanadi. Asosiy ishlov berish tadbirlari: Haydash chuqurligi: 28-30 sm. Kultivatsiya: 12-16 sm chuqurlikda (har yomg'ir yoki sug'orishdan keyin) Boronalash: engil mola yordamida. Tuproq namligining yetarli darajada bo'lishi – ekish sifatini belgilovchi asosiy omil. Namlik o'ta yuqori yoki o'ta past bo'lmasligi kerak.

Chirigan go'ng: gektariga 3 tonnadan (maxalliy o'g'it sifatida) Kichik maydonlarda: har bir uyaga 400-500 grammdan. Mineral o'g'itlar (gektariga) O'g'it turi Me'yor (kg/ga) Qo'llash davri. Fosforli o'g'itlar 230-250 Ekish oldidan. Azotli o'g'itlar 45-50 Maysalardan keyin (1-marta). Azotli o'g'itlar 80-85 G'unchalash fazasida (2-marta). Kaliyli o'g'itlar 30-60 Asosiy ishlov berishda. Umumiy o'g'it me'yorlari (oziq modda hisobida, gektariga): Azot: 60-150 kg. Fosfor: 100-200 kg. Kaliy: 30-60 kg. Kultivatsiya (qator oralarini ishlov berish)

Bosqich Chuqurlik Vaqti 1-marta 12-14 sm Maysalar chiqqandan keyin. Keyingilar 14-16 sm Har yomg'ir yoki sug'orishdan keyin.

Chopiq qilish – hosildorlikni oshirishning muhim omili. Yil davomida 3 marta chopiq qilish tavsiya etiladi: Chopiq soni O'simlik holati Maqsad

1-marta Poyalar 15-20 sm bo'lganda Tuproqni yumshatish, begona o'tlarga qarshi

2-marta G'unchalash davrida Tuproq tortish, namlik saqlash

3-marta Gullash davrida Tuganaklarni ko'mish, hosilni himoya qilish

Chopiq qilish vaqtida o'simlik tagiga va tuplar orasiga tuproq tortish natijasida issiqlikning zararli ta'siri kamayadi.

Zararkunandalarga qarshi kurash. Kartoshkaning eng xavfli zararkunandasi – kolorado qo'ng'izi. Unga qarshi quyidagi preparatlar samarali: Sherpa, Simbush, Zalon. Kimyoviy ishlov berish hosil yig'ishtirilishidan 20-30 kun oldin to'xtatilishi kerak.

Sug'orish tizimi. Ertagi kartoshka sug'orish tartibi. Aprel oxiri – may boshlaridan boshlab har 10-15 kunda. G'unchalash va tuganak hosil qilish davrida har 6-7 kunda. Egat uzunligi: 90-120 metr. Egat chuqurligi: 18-20 sm

Kechki kartoshka sug'orish tartibi. Ekishdan oldin yerni sug'orib olinadi. Maysalar chiqquncha 1-2 marta. Maysalardan keyin sentyabr o'rtalarigacha har 8-10 kunda. Hosil yig'ishdan 15-20 kun oldin sug'orish to'xtatiladi. Yetarli sug'orilmasa, poyasi bo'yiga o'sib, ingichka va nimjon bo'lib qoladi, tuganak hosil qilish sustlashadi.

Xulosa.Kartoshkadan yuqori va barqaror hosil olish uchun quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish lozim:Ekish muddatlariga rioya qilish – kechikish hosilni 30–50% gacha kamaytirishi mumkin.Tuproqqa ishlov berish tizimi – chuqur haydash (28–30 sm) va muntazam kultivatsiya.O'g'itlash – organik (3 t/ga) va mineral o'g'itlarni (azot 60–150 kg/ga, fosfor 100–200 kg/ga) me'yorida qo'llash.Sug'orish rejimi – ayniqsa g'unchalash va tuganak hosil qilish davrida namlikni ta'minlash.Chopiq qilish – 3 marta majburiy chopiq hosilni 20–25% oshiradi.Zararkunandalarga qarshi kurash – kolorado qo'ng'iziga qarshi o'z vaqtida chora ko'rish.Zamonaviy texnologiyalar – intensiv texnologiyalar va yuqori avlodli urug'likdan foydalanish.Hozirgi kunda O'zbekistonda kartoshkaning 130 dan ortiq navi yetishtirilmoqda va mahsulot Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Turkmaniston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2025). Kartoshka yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.
2. Karimov, A. (2024). Qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Botirov, X. F., & Zubaydullaeva, S. (2025). Sug'oriladigan agrosenoza o'tmishdosh ekin va kartoshka hosildorligi. *Modern Science and Research*, 4(5), 4–6.
4. G'ofirjonov, M. T. (2025). Kichik hajmli sabzavotlarni kovlab olish qurilmasini kovlovchi ish organini parametrlarini asoslash tahlili. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 42(3), 96–102.
5. Akbarov, Sh. B., Toshtillaev, Sh. A., & Najmitdinova, G. R. (2025). Kartoshka ekishdan oldin tuproqni tayyorlashda uning fizik-mexanik xossalari. *KiberLeninka*